

TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

*2022-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra
(fermerva dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*


Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko‘plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko‘maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko‘rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risidagi mazkur ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma‘lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1-dekabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmogda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmogda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmogda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
 (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
 2022- yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

37 367



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

5073



Oilaviy korxonona

209



Unitar korxonona

6242



Xususiy korxonona

48




Aksiyadorlik jamiyati

318




Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni
 (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida)

5




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-noyabr oylarida, birlikda)






Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **9,8 foizga oshdi**




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

■ O‘rmon xo‘jaligi


■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korrxona va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga koʻra, birlikda)



Jami faoliyat koʻrsatayotgan sanoat korrxonalar va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 8,3 foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korrxonalar



465



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

9 233




Ishlab chiqarish sanoati

58



Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

189




Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- dekabr holatiga koʻra, sanoat korrxonalarini va tashkilotlarini soni 9 945 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 8,3 %ga oshdi.

Jami sanoat korrxonalarini va tashkilotlarini koʻpayishining asosiy omili – (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 8,7 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,8 %), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 2,2 %ga (jami sanoatdagi ulushi 4,7 %), elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash 1,7%ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 8,0 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) oshgan.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,4** foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni





7,5 foizga oshdi



Mikrofirmalar

Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



8,9 foizga oshdi




6,9 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **14,3** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 4 108 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,4 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 10,8 %ga (jami qurilishdagi ulushi 53,4 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 26,2 %ga (jami qurilishdagi ulushi 9,4 %), korxonalar sonining ortirishidir, shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 0,7 %ga (jami qurilishdagi ulushi 37,2 %) kamayishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 16 492 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,5 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 10,5 %ga (jami savdodagi ulushi 66,5 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 25,0 %ga (jami savdodagi ulushi 26,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 17,5 %ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

866



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

31



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

32



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



405

yashash bo'yicha xizmatlar



3 717


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022- yil 1-dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 4 122 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,5 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 10,5 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,2 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 10,4 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,8 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra

5 525 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 666 taga yoki 13,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 073 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 555 taga yoki 12,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-noyabr oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 803 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 192 taga yoki 19,3 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 40 351 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 031 taga yoki 14,2 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 37 367 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 603 taga yoki 14,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5152 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 481 taga yoki 8,5 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, 1 704 tani tashkil etib, ulardan 1 622 tasi yoki 95,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 202 taga yoki 13,4 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 216 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1704	733	971
Oqqo'rg'on t.	21	6	15
Ohangaron t.	90	33	57
Bekobod t.	10	6	4
Bo'stonliq t.	73	38	35
Bo'ka t.	16	5	11
Quyichirchiq t.	53	26	27
Zangiota t.	224	83	141
Yuqorichirchiq t.	128	56	72
Qibray t.	187	80	107
Parkent t.	30	11	19
Piskent t.	29	12	17
O'rta Chirchiq t.	107	38	69
Chinoz t.	31	13	18
Yangiyo'l t.	98	32	66
Toshkent t.	89	49	40
Nurafshon sh.	77	28	49
Olmaliq sh.	55	17	38
Angren sh.	114	70	44
Bekobod sh.	33	20	13
Ohangaron sh.	53	25	28
Chirchiq sh.	111	61	50
Yangiyo'l sh.	75	24	51

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

ASOSIY SAHIFA QO'MITA HAQIDA AXBOROT XIZMATI INTERAKTIV XIZMATLAR OCHIQ MA'LUMOTLAR MUHOJATLAR KONTAKTLAR

Asosiy / INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari

Xizmatlar ro'yxati
Elektron hisobot
KTYaDR ma'lumotlari
Uslubiy materiallar
Statistik klassifikatsiyalar
Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati
Korxonona pasporti

RASMIY STATISTIKA

E'lon qilish taqvimini
Metama'lumotlar
Makroko'rsatkichlar
Milliy hisoblar
Narx va indekslar
Investitsiyalar
Qurilish
Tashqi iqtisodiy faoliyat

FOYDALI MA'LUMOTLAR

Aholini ro'yxatga olish-2022
Harakatlar strategiyasi
Press-revizlar
Choraklik natijalar
Nashrlar - statistika haqida
Uslubiy materiallar
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar

STIR kodini kiriting

Rasmdagi kodni kiriting

Kodni yangilash uchun rasimga bosing

Qidiruv

<https://stat.uz/uz/hizmatlar/klassifikatsiya>

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Statistik registrarni yuritish bo'limi

Tel.: (71) 202-86-83